

## YOSHLAR ORASIDA INDIVIDUALIZM KUCHAYISHI: SABAB VA OQIBATLAR.

*Guliston davlat universiteti Ijtimoiy ish kafedrasida dotsenti*

**Temirova Nilufar Erkinovna**

*Guliston davlat universiteti ijtimoiy ish yo'nalishi 2- bosqich talabasi*

**Ashurboyeva Zuhra Baxtiyorovna**

+998-97-557-27-06

[ashurboyeva.z.27@gmail.com](mailto:ashurboyeva.z.27@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada zamonaviy yoshlar o'rtasida individualizmning shakllanish omillari, uning ijtimoiy-psixologik ildizlari hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'рни tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar, mehnat bozori va ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri yoritilgan. O'zbekiston yoshlari misolida shaxsiy erkinlik va ijtimoiy mas'uliyat muvozanati bo'yicha xulosalar berilgan.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются факторы формирования индивидуализма среди современной молодежи, его социально-психологические корни и роль в развитии общества. В исследовании освещается влияние цифровых технологий, рынка труда и изменений в системе образования на мировоззрение молодежи. На примере молодежи Узбекистана даны выводы о балансе личной свободы и социальной ответственности.*

**Abstract:** *This article analyzes the factors of individualism formation among modern youth, its socio-psychological roots, and its role in the development of society. The study highlights the impact of digital technologies, the labor market, and changes in the education system on the worldview of young people. Using the example of the youth of Uzbekistan, conclusions are given on the balance of personal freedom and social responsibility.*

**Tayanch so'zlar:** *Individualizm, yoshlar, raqamli texnologiyalar, mehnat bozori, shaxsiy mas'uliyat, ijtimoiy faollik, bandlik, "Men" konsepsiyasi.*

### KIRISH

Yoshlar har qanday millat taraqqiyotining asosi, ertangi kunga bo'lgan ishonchidir. O'zbekistonda yoshlar (14-30 yosh) aholining 60 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Bunday demografik holat mehnat bozorida kuchli raqobatni va islohotlarga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirmoqda. Global dunyoqarashning o'zgarishi natijasida yoshlar orasida jamoaviylikdan ko'ra shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yish — individualizm tendensiyasi kuchaymoqda. Zamonaviy globallashtirish va raqamli transformatsiyalar davrida jamiyatning ijtimoiy tarkibi va qadriyatlar tizimi tubdan o'zgarib bormoqda. Ushbu o'zgarishlarning markazida turuvchi eng faol qatlam —

yoshlar o'rtasida jamoaviylik (kollektivizm) tamoyillaridan ko'ra shaxsiy manfaat va erkinliklarni ustun qo'yish, ya'ni individualizm hodisasi kuchaymoqda. O'zbekiston kabi an'anaviy ravishda jamoaviy birdamlikka asoslangan jamiyatlarda ushbu jarayon sotsiologik nuqtayi nazardan o'ta dolzarb va murakkab fenomen hisoblanadi.

O'zbekiston aholisining 60 foizidan ortig'ini yoshlar tashkil etishi mehnat bozorida va ijtimoiy hayotda o'ziga xos raqobat muhitini yuzaga keltirmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizda mehnat resurslari soni 19 million 345 ming kishiga yetgan bo'lib, yoshlar orasidagi ishsizlik darajasi 15,1 foizni tashkil etmoqda. Bunday sharoitda yoshlar nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham yangicha yashash strategiyalarini ishlab chiqishga majbur bo'lmoqdalar. Individualizmning kuchayishi shunchaki xorijiy madaniyatning ta'siri emas, balki raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy tarmoqlar va shaxsiy kompetensiyalarga bo'lgan talabning ortishi natijasidir.

Ushbu maqolada yoshlar dunyoqarashida "Men" konsepsiyasining markaziy o'ringa chiqishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy omillar — iqtisodiy mustaqillikka intilish, raqamli sotsializatsiya va ta'lim tizimidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, individualizmning yoshlar ma'naviy olamiga ta'siri, xususan, shaxsiy mas'uliyatning ortishi kabi ijobiy hamda empatiyaning pasayishi va ijtimoiy izolyatsiya kabi salbiy oqibatlar sotsiologik jihatdan baholanadi.

### 1. INDIVIDUALIZMNING SHAKLLANISH SABABLARI

Yoshlar dunyoqarashidagi bu burilish bir qator fundamental omillarga tayanadi:

**Raqamli muhit:** Ijtimoiy tarmoqlar har bir yoshga o'z shaxsiy "brendini" yaratish imkonini berdi, bu esa diqqat-markazida faqat shaxsning o'zi bo'lishi psixologiyasini shakllantirdi.

**Mehnat bozoridagi holat:** Hozirgi kunda mamlakatda 1 million 441,8 ming kishi ishga muhtoj bo'lib, yoshlar orasida ishsizlik darajasi 15,1 foizni tashkil etmoqda. Bunday raqobatli muhit yoshlarni faqat o'z kuchi va individual qobiliyatlariga tayanishga majbur qiladi.

**Kasbiy tayyorgarlik muammolari:** Ko'p hollarda yoshlar maktabni bitirishda aniq bir kasb-hunarga ega bo'lmay chiqadilar, bu esa ularning jamiyatda o'z o'rnini topishida qiyinchilik tug'diradi va individual izlanishlarni kuchaytiradi.

### 2. INDIVIDUALIZMNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI

**Ijobiy oqibatlar:**

**Aktiv bandlikka intilish:** Individualist yoshlar passiv kutishdan ko'ra, tadbirkorlik va biznes ko'nikmalarini shakllantirishga (masalan, "Yoshlar: 1+1" dasturi) ko'proq moyil bo'ladilar.

**Shaxsiy mas'uliyat:** Yoshlar faqat davlat tomonidan berilayotgan imkoniyatlardan (subsidiya, moddiy yordam) oqilona foydalanib, o'z harakatlari bilan kelajagini yaratish kerakligini anglamoqdalar.

**Salbiy oqibatlar:**

Ijtimoiy begonalashuv: Faqat shaxsiy manfaatlar bilan band bo'lish jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etish darajasini pasaytirishi mumkin.

Tajriba yetishmasligi: Yakka tartibda harakat qilish yoshlarda amaliy tajriba yetishmasligi muammosini keltirib chiqaradi, bu esa "Ustoz-shogird" an'alarining ahamiyatini oshiradi.

### 3. TAVSIYALAR VA YECHIMLAR

Individualizmning salbiy oqibatlarini kamaytirish va ijobiy tomonlarini jamiyat manfaati uchun yo'naltirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

Aktiv bandlik siyosatiga o'tish va yoshlarni real ish o'rinlariga joylashtirishni rag'batlantirish.

O'rta ta'lim tizimida yoshlarning kamida bitta yoki ikkita kasbni mukammal egallab chiqishini ta'minlash.

Yoshlar yetakchilari va ijtimoiy xodimlarning tashabbuskorligini oshirish orqali yoshlarni jamoaviy loyihalarga jalb qilish.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yoshlar orasida individualizm — bu zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning mahsulidir. Shaxsiy rivojlanishga intilishni jamoaviy mas'uliyat bilan uyg'unlashtirish jamiyat barqarorligining garovidir. Yoshlar faqat o'z harakatlari va davlat yaratgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish orqaligina yuksak maqsadlarga erisha oladilar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar orasida individualizmning kuchayishi shunchaki o'tkinchi tendensiya emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyasi natijasidir. Bugungi kunda mehnat resurslarining 19 million 345 ming kishini tashkil etishi va mehnat bozorida kuchli raqobat har bir yosh shaxsdan alohida omon qolish strategiyasini ishlab chiqishni talab etmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel.
- 2."Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2020-yil 20-oktabr.
- 3."Besh tashabbus" dasturi hujjatlari. 2019-yil 19-fevral.
- 4.Statistika agentligi ma'lumotlari ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)).
- 5.Milliy qonunchilik bazasi ([www.lex.uz](http://www.lex.uz))